

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR KOGNITIV
RIVOJLANISHIGA OTANING TA'SIRI**

Tursunov Lutfulla Sayfullayevich

*Nizomiy nomidagi TDPU "Psixologiya" kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari
nomzodi*

Raimova Saida Hatamjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU I-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada otalarni oiladagi roliga alohida to'xtalib o'tilgan. Maktabgacha ta'lim yoshidagilarning ruhiy va jismoniy hamda kognitiv rivojlanishga otalarning ta'siri haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv, ontogenez, rivojlanish, taraqqiyot, to'liq, to'liqsiz, "Men", Individuallik, aks ettirish.

Аннотация: Данная статья посвящена роли отцов в семье. Обсуждается влияние отцов на умственное, физическое и познавательное развитие дошкольников.

Ключевые слова: познавательный, онтогенез, развитие, прогресс, полное, неполное, "Я", Индивидуальность, рефлексия.

Abstract: This article focuses on the role of fathers in the family. The impact of fathers on the mental, physical and cognitive development of preschoolers is discussed.

Key words: cognitive, ontogenesis, development, progress, complete, incomplete, "I", Individuality, reflection

Oilada otaning o'rniga Sharq mamlakatlarida alohida o'rin berib kelinishining sababi shundaki ota oilani ham ruhan ham jismonan suyanchig'i bo'lishi bilan bir qatorda oilaning asosiy ma'naviy yetakchisi ham hisoblanadi. Garchi jannat onalarning oyog'i ostida bo'lsa ham otaning rozilgisiz hatto u jannat hidini hidlamasligi mutafakkirlarimizning asarlarida takror va takror uqtirib kelingan. Otaning farzand tarbiyasi hamda ruhiy va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'siri haqida fan-texnika rivojlangan axborot asrimizda ham bundan XX asr avval yozilgan Qobusnomada ham o'tgan asrning boshlarida faoliyat ko'rsatgan Jadidlar asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Qobusnomaning muallifi Kaykovus o'z asarida "odam mevaga ota-ona daraxtga o'xshaydi daraxtni yaxshi tarbiya qilsang, mevasi yaxshi va shirin bo'ladi, shuningdek, ota onaga izzat va hurmat ko'proq qilsang sening haqingdagi ularning duosi tezroq mustajob bo'ladi" [1.5 bob.30,31.b]

Otani onadan avval qo'yanligining sababi ko'pligini tan olishimiz lozim. Darhaqiqat otaning oiladagi roli barcha davrlarda ulug'lanib kelishiga sabab ona farzandni dunyoga keltirsa ota bolani olamga tanitib, millatini, davlatini dunyo tan olishiga sababchi bo'ladi. Ijtimoiy psixologiyaning tarmoqlaridan biri bo'lgan oila psixologiyasi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki to'liq oilada rivojlanayotgan bola bilan to'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan bolaning dunyo qarashida o'zligini namoyon etishida va "Men"ligiga bo'lgan munosabatida katta farq bo'ladi. Ayniqsa otasiz oilalardagi bolalarning psixologik xususiyatlari, xulq-atvorlari hamda o'zlariga hos bo'lgan individualligi ajratib turadi. Shuni ham alohida ta'kidlashimiz lozimki, mazkur sohada sotsiologlar olib borgan ta'dqiqotlarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, to'liq oilada o'sgan bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch yuqori bo'lsa, otasiz noto'liq oilada rivojlangan bolalarda bu ko'rsatkich sust yoki noto'liq oilada tarbiyalangan yoshlarning kognitiv jarayonlariga bo'lgan ishonchi sustroq bo'lsa, to'liq oilada tarbiya topgan yoshlarda o'z kognitiv jarayonlari natijalariga bo'lgan ishonchi yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.

Otaning har bir harakat va berayotgan ko'rsatmalari bolalarning ruhiyatida to'liq idrok etilib, hotirada saqlanib qolishiga asosiy sabab otadagi har bir harakat yoki ko'rsatmani qayta-qayta takrorlamasligi ekan. Yani aniq qat'iy harakat va ko'rsatma otalar ruhiyatiga tegshli bo'lgani uchun ham aksari bolalar otalarni ko'rsatmalariga ko'proq e'tibor qaratishlari ta'dqiqotlarda aks etganligini ta'dqiqotchilar ta'kidlab keladilar. Oila psixologiyasi bilan shug'ullanuvchi aksari mutaxassislar bola tug'ilganidan 3 soniya o'tib, otasining ovozini taniydi, 3 hafta o'tib esa onasining ovozini tanishini tez tez ta'kidlab turishadi. Buning sababi shundaki bolaning ona qornida embrion rivojlanish bosqichlarida, ota gapirganida uning tovushi distibali va chastotasi bolaga kelib urilgan, ona gapirganida esa tovush boladan qarama-qarshi tomonga qarab yo'nalgan, shu sababli bolaga otaning tovushi onanikiga qaraganda tanishroq tuyuladi. Yoki to'liq oilada o'sayotgan bolalarni aksariyatini dastlabki so'zlaridan biri "Ada" degan so'z bo'lishiga e'tibor qaratganmisiz? Buning ham o'ziga xos ijtimoiy psixologik asoslari mavjud. Ya'ni onalar har soatda kamida "Ana adang" degan so'zni to'rt-besh marotaba takrorlashlari odatiy hol ekan, natijada bola taqlidchanligi asosida "Ada", "Dada" degan iborani takrorlayveradi. Yoshlarni hulq ahloq va odobida otaning o'ziga xos hususiyatlari aks etishi tabiiy hol bo'lib u milliy qadriyatlarimizda namoyon bo'lishini yetakchi olimlar ta'kidlab kelishadi. E.G'.G'oziyev ta'kidlaganlaridek "Axloq va odobli bo'lish, ota onalar va kattalarga hurmat, samimiylik, inoqlik, qadr-qimmat, vijdonliqlik, iffatliqlik, o'zari yordam kabi insoniy hislatlar o'zbek xalqi ma'naviyatining ramzi sanaladi. Milliy ma'naviy boyligimizni yoshlar chuqur egallashlari uchun uning bebaho

durdonalarini keng ko'lamda namoyish qilishimiz, bular to'g'risida yoshlar ongiga muayyan bilimlarni singdirishimiz zarur".

Milliy qadriyat va ma'naviyatni oilada umiyoshlarga singdirishda otaning rolini hech kim bosa olmasligini yuqoridagi fikrdan ham aniq ko'rish mumkin. O'zbek xalqining o'ziga hos hususiyatini aks ettiradigan eng kichik jamoa oila bo'lsa, ana shu oilada yoshlar o'zlarini to'liq imkoniyatlarini namoyon etib, spng boshqa jamoalarga o'z "Men"liklarini ko'rsatishlari maqsadga muvofiqdir. Mazkur holatni davomiy nazorat qilib turuvchi ota ekanligini oila tizimini ilmiy amaliy tahlil etgan psixologlarimiz o'z izlanishlari natijalarida qayd etganlar. Yoshlarda kognitiv jarayonlar ijtimoiy psixologik qonuniyatlarining tahlili shuni ko'rsatadiki to'liq oilada rivojlangan yoshlar jinsidan qat'iy nazar o'zlarinig aniq va yo'nalgan fikrlarini dadil ayta olishlari bilan to'liqsiz oilada tarbiya topgan tengdoshlaridan ajralib turgan. Otalardagi qat'iyatlik va aniq talabchanlik oilada tarbiyalanayotgan yoshlar kognitiv jarayonlarni takomillashuvida aks etmay qolmasligi insonshunoslik fanlarida o'z isbotini topgan desak xato bo'lmaydi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kognitiv rivojlanishiga otalarning ta'siriga e'tibor qaratadigan bo'lsak ulardagi otalarga bo'lgan munosabati boshqa davrlarda ko'rinmaydi. Bu yoshdagi bolalar uchun otasi hamma narsani biladi va hamma narsa qo'lidan keladi. Otaning timsoli idela sifatida aks ettirish mazkur yosh vakillariga hos bo'ladi. Bolaning "Men"ligi shakllanib o'zligini anglash jarayonida otaning diqqat e'tibori bolalar uchun naqadar zarurligi va ana shu e'tibor orqali oilada bolaning o'z o'rniga ega bo'lishini mutaxassislar ta'kidlab o'tishadi. Qolaversa, dono xalqimizning ko'plab maqol va matallarida ota va onaning bola tarbiyasida birligi beqiyos ekanligi uqtirib o'tiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.Qobusnoma. T. "Zamon" 2021
- 2.E.G'.G'oziyev Umumiy psixologiya T. O'zbekiston FMJ nashriyoti 2010